

MUSIQA TA'LIMI YO'NALISHI TALABALARDA ESTETIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Samatova Dilnoza Salaidinovna

Samarqand davlat pedagogika instituti "Musiqqa ta'limi" kafedrası v.b dotsenti,

Omanqulova Shohida Nematillo qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti "Musiqqa ta'limi" kafedrası dotsenti, (phd)

Annotatsiya: Estetik tafakkur talabaning musiqiy asarlarni anglash, hissiy qabul qilish va ijodiy talqin etish qobiliyatlarini shakllantiruvchi muhim tarkibiy qism hisoblanadi. Maqolada cholg'u ijrochiligi, musiqiy nazariya va tarix fanlari orqali talabalar estetik didini rivojlantirish, badiiy tafakkur va musiqiy idrokni chuqurlashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, pedagogik jarayonda estetik tafakkurini uyg'un shakllantirishda o'qituvchi va talabaning faol o'zaro ta'siri, metodik va didaktik yondashuvlar asosiy vosita sifatida ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: musiqqa ta'limi, estetik tafakkur, cholg'u ijrochiligi, musiqiy idrok, badiiy did, pedagogik jarayon.

MUSICAL EDUCATION STUDENTS: PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING AESTHETIC THINKING

Abstract. Aesthetic thinking is an essential component that shapes students' ability to understand musical works, perceive them emotionally, and interpret them creatively. The article examines opportunities to develop students' aesthetic taste, artistic thinking, and musical perception through instrumental performance, music theory, and music history courses. In addition, the study emphasizes that the active interaction between

teachers and students, as well as methodological and didactic approaches, serves as a key tool in harmoniously forming aesthetic thinking in the pedagogical process.

Keywords: music education, aesthetic thinking, instrumental performance, musical perception, artistic taste, pedagogical process.

МУЗЫКАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ: ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ

Аннотация: Эстетическое мышление является важной составляющей, формирующей способность студентов понимать музыкальные произведения, эмоционально их воспринимать и творчески интерпретировать. В статье рассматриваются возможности развития эстетического вкуса, художественного мышления и музыкального восприятия студентов через занятия инструментальной игрой, музыкальной теорией и историей музыки. Также подчеркивается, что активное взаимодействие между преподавателем и студентом, а также методические и дидактические подходы являются основными средствами гармоничного формирования эстетического мышления в педагогическом процессе.

Ключевые слова: музыкальное образование, эстетическое мышление, инструментальное исполнительство, музыкальное восприятие, художественный вкус, педагогический процесс.

KIRISH. Musiqa inson ruhiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan, estetik va badiiy didni shakllantiruvchi san'at turi sifatida qadrlanadi. Oliy pedagogik musiqa ta'limi jarayonida talabalarning musiqiy va estetik tafakkurini rivojlantirish nafaqat kasbiy tayyorgarlik, balki shaxsiy kamolotning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Estetik tafakkur shaxsning musiqiy asarlarni anglash, hissiy jihatdan qabul qilish, ularni ijodiy talqin etish va baholash qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bois, musiqa ta'limi yo'nalishida

pedagogik jarayonlar faqat texnik va nazariy tayyorgarlikka emas, balki talabalar estetik tafakkurini uygʻun shakllantirishga yoʻnaltirilishi lozim.

Cholgʻu ijrochiligi, xususan rubob ijrochiligi, bu jarayonda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Talabalar ijrochilik mashgʻulotlari orqali musiqa gʻoyaviy-badiiy mazmunini his etishni, ohang va ritmni toʻgʻri anglashni, ijrochilik va estetik didni uygʻunlashtirishni oʻrganadilar. Shu bilan birga, talaba nafaqat ijro etuvchi, balki kelajakda musiqa oʻqituvchisi sifatida pedagogik faoliyat koʻrsatishga tayyor boʻlishi kerak. Bu esa musiqa taʼlimi yoʻnalishidagi pedagogik jarayonning muhim pedagogik mazmunini tashkil etadi.

Musiqa inson ruhiyatiga bevosita taʼsir koʻrsatadigan, insoniyatning maʼnaviy kamolotida muhim oʻrin tutuvchi sanʼat turi sifatida estetik tarbiyaning eng samarali vositalaridan biri sanaladi. Talabalar cholgʻu ijrochiligi, kuylash, kompozitsiya, musiqiy tahlil kabi jarayonlar orqali nafaqat texnik mahorat, balki musiqiy tafakkur, hissiy ifoda va estetik baholash qobiliyatlarini rivojlantiradi [5]. Shu bois, estetik tafakkurni shakllantirish musiqa taʼlimida pedagogik jihatdan muhim vazifa hisoblanadi, chunki u talabaning kelajakdagi professional faoliyati, ijodiy yondashuvi va badiiy dunyoqarashining poydevorini yaratadi.

Pedagogik nuqtai nazardan, estetik tafakkurni rivojlantirish jarayoni shaxsning hissiy, idrok va ijodiy faoliyatini uygʻunlashtirgan kompleks tizim sifatida koʻriladi. Bu tizimda oʻqituvchi yoʻnaltiruvchi, boshqaruvchi va motivator rolini bajaruvchi subyekt boʻlsa, talaba faol ijodiy subyekt sifatida ishtirok etadi. Shuning uchun estetik tafakkurni rivojlantirish oʻqituvchi va talaba oʻrtasidagi kollaboratsiya, emotsional aloqa, badiiy muloqot va ijodiy refleksiya asosida amalga oshiriladi. Zamonaviy pedagogik nazariyalar bu jarayonni kompetensiyaviy, kognitiv, affektiv va akmeologik yondashuvlarning integratsiyasi orqali tahlil qiladi.

METODOLOGIYA. Kognitiv yondashuv talabaning musiqiy idroki, tafakkuri va bilish faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan boʻlib, musiqiy materialni tahlil qilish, anglash, tushunish jarayonlarini kuchaytiradi. Affektiv yondashuv esa estetik hissiyotlarni

uygʻotish, musiqaga emotsional munosabatni shakllantirish, ichki kechinmalar orqali badiiy ifoda topish imkonini beradi. Akmeologik yondashuv orqali esa talaba oʻzining ijodiy choʻqqisiga erishish, estetik va professional kamolot sari intilish imkoniyatiga ega boʻladi. Ushbu yondashuvlarning uygʻunlashuvi natijasida estetik tafakkurning shakllanishi tabiiy, ongli va barqaror jarayonga aylanadi [1, -630-631-b.].

Musiq taʼlimida estetik tafakkurni rivojlantirish talabaning maʼnaviy va badiiy rivojlanishidagi asosiy vazifa sifatida qaraladi. Musiqa nafaqat texnik faoliyat, balki estetik qadriyat sifatida talaba ongida idrok etilishi lozim. Estetik tafakkur musiqaning gʻoyaviy-badiiy mazmunini anglash, insoniy his-tuygʻularni musiqiy asar orqali his qilish va shaxsiy dunyoqarash bilan bogʻlash imkonini beradi. Natijada, talabalarda goʻzallikka muhabbat, badiiy did, axloqiy va estetik qadriyatlarga sadoqat kabi fazilatlar shakllanadi. Shu sababli, estetik tafakkur nafaqat kasbiy tayyorgarlik, balki shaxsiy kamolotning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Zamonaviy musiqa taʼlimida estetik tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan yangi metodik yondashuvlar – integrativ taʼlim, muammoli oʻqitish, refleksiv tahlil va loyiha asosida oʻqitish – keng qoʻllanilmoqda. Ushbu usullar talabalarga musiqiy asarlarni tahlil qilish, baholash va ijodiy talqin etish koʻnikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Shu tariqa, musiqa taʼlimi texnik tayyorgarlik bilan cheklanmay, shaxsning badiiy-estetik tafakkurini chuqur shakllantirishga xizmat qiladi.

Milliy va jahon musiqa madaniyati namunalarini oʻrganish jarayonida talabalarda estetik qiyosiy tafakkur ham rivojlanadi. Ular turli musiqiy uslublar, ifoda vositalari va milliy anʼanalar orasidagi farqlar va oʻxshashliklarni tahlil qilish orqali musiqiy dunyoqarashlarini kengaytiradilar, estetik baholash mezonlarini boyitadilar va ijodiy tafakkurini oshiradilar.

Musiqa taʼlimi yoʻnalishi talabalari uchun estetik tafakkurning rivojlanishi taʼlim jarayonining tabiiy va ajralmas qismi hisoblanadi. Bu jarayon shaxsni har tomonlama barkamol, ijodkor, goʻzallikni his etuvchi va badiiy qadriyatlarga sodiq inson sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Agar estetik tafakkur yetarli darajada rivojlanmasa, taʼlim

jarayoni faqat kasbiy ko'nikmalar bilan cheklanib qoladi va talaba ma'naviy va badiiy jihatdan boy shaxs sifatida yetuklash imkoniga ega bo'lmaydi. Shu sababli musiqa ta'limi jarayonida estetik tafakkurni shakllantirish metodik, didaktik va psixologik asosda ilmiy tarzda tashkil etish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

Estetik tafakkur yoshlarning ongini go'zallik bilan boyituvchi, ularni voqelikni his etishga undovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, ijrochilik mahorati talabaning estetik tafakkurini rivojlantirishda alohida o'rin tutadi. Mukammal ijrochilik ko'nikmalariga ega bo'lgan pedagog talaba malakasini oshirish va badiiy qadriyatlarni yetkazishda eng samarali vosita hisoblanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Oliy ta'lim muassasalarida musiqa ta'limi yo'nalishiga qabul qilingan talabalar ba'zan allaqachon malakali ijrochilar bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, ularning ko'pchiligi cholg'u ijrochiligining boshlang'ich bosqichida qoladi va ularga umumiy ijrochilik malakalari bilan cheklanib, pedagogik jihatlar yetarli darajada o'rgatilmaydi. Bu holat kelajakda talabalarning pedagogik faoliyatida qiyinchiliklarga olib keladi, chunki mukammal ijro mahoratiga ega bo'lish pedagogik bilim va malaka bilan birga bo'lmasa, boshqa o'quvchilarga ijrochilik ko'nikmalarini o'rgata olmaydi.

Shuning uchun musiqa ta'limi yo'nalishida talabalarning cholg'u ijrochiligi malakalarini rivojlantirish jarayoni metodik, integratsiyalashgan va uzluksiz bo'lishi lozim. Bu jarayonda o'qituvchi dars mashg'ulotlarini zamon talabi asosida rejalashtiradi, pedagogik vaziyatni to'g'ri baholaydi va kasbiy pedagogik mexanizmlardan samarali foydalanadi. Natijada, talabalar ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga, pedagogik faoliyatga tayyor bo'ladilar.

Musiqa intonatsiyasini egallashni K.S.Stanislavskiyning aktyor ijodiy tabiatini ochishga yo'naltirilgan tahlili bilan bir darajaga qo'yish mumkin. Talabalar musiqiy obrazini idrok etishda o'z kechinmalariga murojaat etadi, ular verballashtirish orqali emas, obraz bilan vokal, plastik (harakatli) intonatsiyada faol harakat qilish orqali xuddi o'ziga savol bergandek, o'zidan obrazga va obrazdan o'ziga murojaat etadi [5; 149-b.].

Cholgʻu ijrosi faoliyati jarayonida emotsiyalar kechishiga qarab sezgilarni uchga boʻlish mumkin, yaʼni ijro etilayotgan cholgʻu asaridagi badiiy mazmuni adekvat idrok etish va u haqda toʻliq tasavvurlarga ega boʻlish, tasavvurlar negizida shaxsda tegishli xulosalar shakllanishi [2].

Yuksak pedagogik mahoratga ega boʻlgan oʻqituvchi oʻquvchini tushuna olishi, unga nisbatan insonparvar munosabatda boʻlishi, har qanday pedagogik vaziyatni toʻgʻri baholashi, yuzaga kelish ehtimoli boʻlgan ziddiyatlarni oʻz vaqtida bartaraf etishi, pedagogik faoliyatda hamisha ilgʻorligi, jamiyat taraqqiyoti hamda pedagogik jarayonda oʻquvchilar ongiga singdirayotgan ezgu gʻoyalarni hayot bilan bogʻlay olishi lozim” [7; 8-b.].

Musiqqa taʼlimi yoʻnalishi talabasining estetik tafakkurini rivojlantirish uning ongini, estetik dunyoqarashini boyitish, kasbiy intellektual bilimlarini kengaytirish, talabalarga dars berayotgan professor-oʻqituvchilarning asosiy maqsadiga aylanishi lozim.

Rus pedagogi va musiqachisi M.G.Aranovskiyning fikricha boshlangʻich musiqqa taʼlimi oʻqituvchisining estetik tafakkurini rivojlantirishda turli xil musiqiy faoliyatni amalga oshirish orqali bajarilgan funksiyalar asosida olib borilishi mumkin [3]. Bular 3 turdan iborat boʻlib, musiqqa yaratish, idrok etish va ijro etishdir. Ushbu 3 ta faoliyat turining birligi sifatida musiqiy tafakkur va uning umumiy qismi boʻlgan estetik tafakkur rivojlanadi.

Taniqli musiqachi pedagog D.B.Kabalevskiy taʼkidlaganidek musiqqa oʻqituvchisi “umumiy pedagogik tayyorgarlikdan tashqari albatta cholgʻu chalishni, aniq va ifodali dirijorlik va xor ijrochiligi texnikasiga ega boʻlishi vokal ijrochiligi, musiqqa tarixi va nazariyasi boʻyicha bilimga ega boʻlishi lozim” [5]. Shu maʼnoda oliy pedagogik musiqqa taʼlimi yoʻnalishi talabalarining kasbiy funksiyalari integratsiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Cholgʻu ijrochiligi asosida musiqqa taʼlimi yoʻnalishi talabalarining estetik tafakkurini rivojlantirish muammosini hal etish nazariy asoslaridan kelib chiqib, bu

jarayon pedagogik mexanizmlarni maqsadli va tizimli tarzda ishlab chiqishni talab qiladi. Oliy ta'lim muhitida talabalarga san'at go'zalligini idrok etish va uni yaratish imkonini beruvchi shart-sharoitlarni yaratish, kasbiy tayyorgarlikning asosiy pedagogik faoliyatini tashkil etish eng muhim vazifa hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, musiqa ta'limi yo'nalishiga qabul qilingan talabalar estetik tafakkurini rivojlantirish va ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqish oliy ta'lim muassasalarining ustuvor vazifalaridan biridir. Buning natijasida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

1. Talabalarning musiqiy idrokini rivojlantirish;
2. Ularning estetik his-tuyg'ulari va badiiy g'oyalarini shakllantirish;
3. Musiqiy va ijodiy qobiliyatlarini muntazam rivojlantirish.

Estetik tafakkur rivojlanishi jarayonida talabalar musiqiy ijod mahsulotlariga ongsiz munosabatdan ongli munosabatga o'tadilar, ya'ni go'zallikni ongli his etish va baholash qobiliyatini egallaydilar. Shu tarzda, musiqiy va badiiy did ularning shaxsiy va professional kamolotida mustahkamlanadi.

“Estetika – san'atning umumiy nazariyasi, san'at falsafasi, san'at taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari to'g'risidagi fan” [8]. Go'zallik esa me'yor, estetik shakl, uyg'unlik, yaxlitlik, maqsadga muvofiqlik tamoillarini o'z ichiga oladi. Estetik tafakkur estetika tushunchasi bilan uzviy bog'lanib, go'zallik haqidagi tushunchalarni o'zida mujassam etadi.

Estetik tafakkurni rivojlantirishda badiiy – estetik tarbiya muhim ahamiyatga ega. Buyuk faylasuf olim Arastu ham “musiqi ruhning estetik va axlaqiy tomoniga ta'sir o'tkazishga qodir” deb yozadi. San'atning inson kamolotiga ta'sirining aynan shunday tomonlarini A.M.Gorkiy ham qayd etib, estetikani “kelajak etikasi” deb ataydi. Ammo san'atning inson kamolotiga ta'siri uning estetik tafakkuriga bog'liq. Voqelikning badiiy aks etish qonuniyatlarini, musiqiy til va badiiy vositalarni idrok etmay turib, san'at na insonning fikrini va na uning chuqur tuyg'ularini uyg'ota olmaydi. Bu faqat estetik tafakkuri rivojlangan shaxsga yetarlicha zavq keltiradi. Masalan cholg'u san'atining

go‘zalligini idrok etish uchun, uning ijro xususiyatlarini bilish, musiqa tilini tushunishi lozim.

XULOSALAR. Musiqa ta’limi yo‘nalishi talabalarining estetik tafakkurini rivojlantirish pedagogik jarayonning ajralmas qismi bo‘lib, shaxsning musiqiy va badiiy didini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Cholg‘u ijrochiligi mashg‘ulotlari, xususan rubob ijrochiligi, talabalarga estetik tafakkurini chuqur anglash, musiqiy asarlarni ongli baholash va ijodiy tarzda talqin etish imkonini beradi.

Shuningdek, estetik tafakkur pedagogik jarayonni faollashtiruvchi vosita sifatida talabalarning musiqiy idrokini rivojlantiradi, hissiy va ijodiy qobiliyatlarini boyitadi, ularni kelajakda musiqiy ta’lim beruvchi yetuk pedagog sifatida shakllantiradi. Shu bilan, musiqa ta’limi yo‘nalishida estetik tafakkurni rivojlantirish metodik va pedagogik jihatdan tizimli yondashuvni talab qiladi, bu esa oliy pedagogik musiqa ta’limining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hamdamova L.O. & Xodjiyeva, F.O. (2023). Ta’lim jarayonida pedagogik akmeologiya fanining o‘rni va ahamiyati. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 1(1), 630-631.
2. Sobirov N.X. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida sozandalik mahoratini rivojlantirish metodikasi. P.f.f.d. (PhD) diss-y. Toshkent, 2025. – 157 b.
3. Aranovskiy M.G. Музыкальный текст. Структура и свойства. М.:Композитор 1998. 344 c
4. Samatova D.S. (2025). Talabalarning sozandalik malakalari asosida estetik tafakkurini rivojlantirish. Library.
5. Samatova D.S. Cholg‘u ijrochiligi. O‘quv qo‘llanma, Samarqand 2022-yil
6. Umarov E. Estetika asoslari: Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. - T.: «Sharq», 2004. - 128 b
7. Xoliqov A Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma 2010 y 7- bet